sida matn tuzish, matn asosida hikoya yozish) ular uchun motivatsion omil bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish mustaqil ishlar samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Har bir talabaga uning bilim va tayyorgarlik darajasiga mos topshiriq berilishi, o‘z navbatida, til kompetensiyasining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu yondashuv talabalarning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirdi, faol ishtirok va mustaqil fikrlashga undadi. Shuningdek, tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, tabaqalashtirilgan topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari talabalarning tilni o‘rganishdagi individual ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi.

“Ona tili” fanida tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish natijasida quyidagi ijobiy jihatlar kuzatildi:

– talabalar bilim darajasiga qarab individual yondashuv ta’minlanadi, bu esa ularning o‘zlashtirish salohiyatini oshiradi;

– mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, ayniqsa, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, mantiqiy tahlil qilish kabi kompetensiyalar shakllanadi;

– har bir talabaning o‘z qobiliyati darajasida faollashuvi ta’minlanadi, bu esa umumiy o‘quv motivatsiyasining ortishiga olib keladi;

– o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali muloqot va fikr almashinuvi kuchayadi, natijada o‘quv jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan xususiyat kasb etadi.

Shuningdek, bu metodika ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelgusida tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish tajribasini quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

▪Boshqa fanlarda ham tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish orqali interfaol va individual yondashuvni kengaytirish.

▪Elektron platformalarda tabaqalashtirilgan topshiriqlarni avtomatlashtirish, ya’ni, ularni sun’iy intellekt asosida shakllantirish va monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish.

▪Metodik qo‘llanmalar yaratish orqali o‘qituvchilarni tabaqalashtirish metodikasiga tayyorlash va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

▪Tajriba almashinuvi seminarlarini tashkil etish orqali oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishni rag‘batlantirish.

Umuman olganda, tabaqalashtirilgan topshiriqlar o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning individual o‘ziga xosliklarini inobatga olish va ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Давыдов В.В. Психология обучения школьника. Москва, “Просвещение”, 1996, 240 с.
(2). Jo‘rayev A. Mustaqil ta’limni tashkil etish. Toshkent, TDPU, 2019, 134-bet.
(3). Egamberdiyev M. Til o‘rgatishda interfaol metodlar. Samarqand, 2020, 102-bet.
(4). Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Москва, “Педагогика”, 1989, 328-бет.
(5). To‘xtayeva Z. Filologik fanlarda tabaqalashtirish metodikasi. Toshkent, “Ilm Ziyo”, 2021, 87-bet.

Alimov Farhod (Andijon davlat universiteti dotsenti, ped. f.f.d. (PhD); alimovfarhod1976@gmail.com)

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARINING YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI MODELLASHTIRISHNING METODIK TIZIMI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonining barcha sohalarida, jumladan, chet tillarini o‘rgatishda yangi va samarali modellashtirish yondashuvini topish zarurligini ko‘rsatib o‘tilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, raqamli ta’lim tizimida nofilologik fakultet talabalarning xorijiy til kasbiy yozma nutq kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni va jarayonini modellashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash dolzarb muammolardan biri ekanligi qayd etildan.*

Kalit so‘zlar: *model, modernizatsiya, raqamli ta`lim, kompetensiyasi, kasbiy, yozma nutq, kommunikativ model.*

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА МОДЕЛИРОВАНИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость поиска нового и эффективного подхода к моделированию во всех областях образовательного процесса, включая обучение иностранным языкам. По полученным результатам отмечается, что моделирование содержания и процесса формирования компетенций профессиональной письменной иноязычной речи студентов нефилоло-*

гических факультетов и подготовки квалифицированных специалистов является одной из актуальных проблем при внедрении системы цифрового образования.

Ключевые слова: *модель, модернизация, цифровое образование, компетентность, профессиональная, письменная речь, коммуникативная модель.*

METHODOLOGICAL SYSTEM FOR MODELING STUDENTS' WRITTEN SPEECH COMPETENCE IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION

Annotation. *This article deals the need to find a new and effective modeling approach in all areas of the educational process, including foreign language teaching. According to the results obtained, it is noted that modeling the content and process of forming foreign language professional written speech competencies of students of non-philological faculties and training qualified specialists is one of the urgent problems during the implementation of the digital education system.*

Keywords: *model, modernization, digital education, competence, professional, written speech, communication model.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida ta'lim jarayonining xarakterli xususiyatlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning global tendensiyalarining vazifalari bilan belgilangan. Zamonaviy dunyoda ta'limning ahamiyati katta bo'lib, ilg'or mamlakatlarning ta'lim tizimidan orqada qolish xavfi har bir mamlakatda ta'lim sohasida samarali choralar ko'rishni talab qiladi. O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bunga ta'lim sohasiga oid bir qator davlat hujjatlari, jumladan, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-qonuni, "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" va "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish" bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-mayda imzolagan № PQ-134-farmoni misol bo'la oladi.

Mazkur davlat hujjatlari O'zbekiston Respublikasida ta'limni modernizatsiya qilishning uzoq muddatli istiqbollarini belgilab berdi. Ta'limni modernizatsiya qilish jamiyatning barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Model ilm-fan kontseptsiyasining asosiy tushunchasi bo'lib, unda mantiqan mukammal o'quv materiallari jamlangan. Ta'lim jarayonini modellashtirish til o'rganishning eng istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi. Inson miyasining o`rganish tizimiga yaxshi moslashadi. Shu nuqtayi nazardan, modelni ta'lim jarayonining "hujayrasi" sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy-metodik adabiyotlarda modellashtirish tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bosqichda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ustvor ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq kompetensiyasini modellashtirish va shakllantirish masalalari L.D.Apushkin, M.A.Pavlov, A.Yu.Suslov, V.N. Kopytko, S.V.Titov, X.Fang, M.Malik va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan [1,2,3,4,5,6,7].

Tadqiqod metodologiyasi. Modellar ta'lim jarayonda til faoliyatini, shu jumladan, yozma nutq faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ta'lim jarayoni modeli metodik tizim sifatida aniqlanib, unga ta'lim mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari va o'quv jarayonining barcha elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash texnologiyasi kiradi. Modelning o'quv funksiyasi yozma nutq ko'nikmalarini, shu jumladan, nofilologik fakultet talabalarining ingliz tilida kasbiy yozma nutq kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishda namoyon bo'ladi. Professor O.Mixaylova ta'kidlashicha, har bir dars turiga o'ziga xos "didaktik-metodik model" mos keladi va modellashtirishda quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:



1-rasm. 1. Didaktik-metodik modelning tarkibiy qismi.

Yozma nutqni o'rgatishda ushbu modeldan foydalanish talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga bo'lgan kognitiv va shaxsiy qiziqishlarini rivojlantiradi, chunki u bilimlarni shakllantirish va rivojlanti-

rishga, shuningdek, kognitiv kasbiy tajriba olishga yordam beradi. Ijodiy yondashuvni shakllantirishda olingan bilimlarni qo‘llash, asosiy e’tiborni raqamli tehnologiyalar asosida talabalarning yozuv va yozma nutq bilan bog‘liq lingvistik-metodik muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan, talabalarning yozma ishlarida o‘z-o‘zini baholashga va tahlil qilishga qobiliyatlarini rivojlantirishga, tajriba orttirishga, turli muloqot jarayonida o‘zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Kasbga yo‘naltirilgan yozma nutqiy vaziyatlarda olingan tajriba talabalarga yozma nutq faoliyatiga nisbatan kelajakdagi kasbiy o‘sishlariga rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.



2-rasm. Kasbiyga yo‘naltirilgan yozma ijodiy yondashuvni rivojlantirish modeli.

Talabalarning turli muammolarni darslarda hal qilishdagi ijodkorligi, kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida kasbiy tafakkurini takomillashtirishning mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularni kelajakdagi o‘z kasblariga nisbatan shaxsiy va axloqiy munosabatlar tizimini shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq faoliyatida ijodiy yondashuv, bilimlar, ko‘nikmalar, tajriba va talabalarning kasblariga nisbatan shaxsiy munosabatlariga asoslangan lingvodidaktik model sifatida qaraladi. Talabalarning yozma nutqiy muammolarini hal qilishdagi ijodkorligi ko‘p jihatdan aniqlik, onglilik, faollik, ilmiylik, tizimlilik, izchillik, qulaylik va motivatsiya kabi umumiy didaktik tamoyillarga asoslanadi. Lingvistik-metodik tamoyillar, masalan, kasbga yo‘naltirish fundamental bilimlardan xabardorlik, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash qobiliyati, individual rivojlanish va boshqa faktorlar talabalarda ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ilmiy-metodik adabiyotda keltirilgan turli g‘oya va yondashuvlar bilan tanish ekanligi, ularni zamonaviylik nuqtai nazardan tahlil qilish, o‘qituvchilarning lingvistik-metodik tajribasini, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, o‘qituvchining talabalarni kuchli va zaif tomonlarini aniqlash qobiliyatini, talabalarning ijodiy salohiyatiga tayanishni, muammoli vaziyatlarni hal qilishni, o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini o‘z ichiga olgan barcha omillar ijodiy yondashuvni tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Kasbga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida talabalarning metodik ko‘nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi, ko‘p jihatdan, talabalarda yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishdagi strategik va taktikalik maqsadlarni to‘g‘ri belgilash qobiliyatini rivojlantirishga bog‘liq, bu esa talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, yozma nutqqa oid o‘quv

materiallarining til va nutq xususiyatlarini inobatga olish ham muhim. Talabalarda ijodiy yondashuvni rivojlantirishda axborotni tahlil qilish, to‘g‘ri lingvistik-metodik qarorlar qabul qilish, o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini o‘z ichiga olgan ijodiy yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim.

Nutq ko`nikma va malakalarini shakllantirishda chet tili til hodisalarini va nutq modellari asosida o‘rganish modellashtirish usulining mohiyatini tashkil etadi. Tilshunoslik va lingvometodologiya sohalarida modellashish obyektlari talabalarning yozma nutq faoliyatining tematikasi va mazmuni bo‘lishi mumkin. Bu yerda yozma nutq o‘qitish jarayoni modellashuvi amalga oshiriladi.

Yozma nutq nutq faoliyati turlaridan biri bo‘lib, chet tilini o‘rganish jarayonida muloqotning o‘ziga xos shakli bo‘lgan kommunikativ funktsiyaga ega. Ma’lumki, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida kommunikativ faoliyatning asosisi uchta komponentdan iborat kommunikativ model tashkil etadi: xabar yuboruvchi (o‘qituvchi), xabar matni (yozma matn) va xabar qabul qiluvchi (talabalar). Bu jarayonda o‘qituvchining asosiy vazifasi talabalarning o‘qish jarayonini samarali tashkil qilishda, ularni to‘g‘ri muloqot qilishda va mos metod va usullarni tanlashida yordam berishdir. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi roli ba’zi jihatlarda kamayganini ta’kidlash lozim. Garchi o‘qituvchida boshqaruvchi rol saqlanib qolgan bo‘lsa-da, u o‘quv jarayonini tashkil etishda, an’anaviy “sinfga yo‘naltirilgan” (class-oriented) o‘rgatish usulidan farqli o‘laroq, boshqaruvchi rolni egallamaydi. Endi “talabaga yo‘naltirilgan” (student-oriented) o‘quv jarayonining vaqti keldi. Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchi o‘quv jarayonida “moderator” sifatida ishtirok etadi, talaba esa o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunga didaktik-metodik model va kommunikatsiyaga asoslangan o‘quv modeli yordam beradi, chunki bu modellarda ko‘p tomonlama kommunikatsiya mavjud bo‘lib, bu talabalarning ta`lim jarayonida faolligini oshiradi. Kommunikativ model talabalarga o‘zaro muloqotda bo‘lish, shuningdek, o‘qituvchi bilan ham aloqada bo‘lish imkoniyatini yaratadi, bu esa eshitish, gapirish, eshitilganlarni tiklash, o‘qilgan va eshitilganlarni talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. Nutq jarayonini modellashishda asosiy vazifa talabalarni nutqiy muloqotga undash, bunda muloqot ishtirokchilari axborot almashish, o‘z fikrlarini yozma ravishda ifodalashadi. O‘quv jarayonini modellashish ma’lum bir tizimni tashkil etadi, unda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro bog‘liq harakatlarining ichki tashkil etilgan majmuasi mavjud. Kommunikativ model talabalarga o‘zaro muloqotda bo‘lish, o‘qituvchi bilan aloqada bo‘lish imkoniyatini yaratadi, bu eshitish, gapirish, eshitilganlarni tiklash, o‘qilgan va eshitilganlarni talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Nutq jarayonini modellashishning asosiy maqsad nofilologik fakultet talabalarni kasbiy yozma nutqiy muloqotiga undash, bunda muloqot ishtirokchilari axborot almashish, o‘z fikrlarini erkin yozma ravishda ifodalashadi. O‘quv jarayonini modellashish ma’lum bir tizimni tashkil etadi, unda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro bog‘liq harakatlarining ichki tashkil etilgan majmuasi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Апушкина Л.Д., Жуковская Т.Д. Пути обучения студентов академическому письму: правила формулирования тезиса. Молодежный вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры. 2019, № 1 (11), с. 177 – 180.

(2). Павлова М.А., Сахарова Е.Е. Принципы коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам. “Молодой исследователь Дона”, № 5 (20), 2019, с.141–144.

(3). Копытко В.Н. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку студентов нелингвистических вузов. Проблемы современного педагогического образования. № 64-1, 2019, с. 170–172.

(4). Титова С.В. Обучение иноязычной письменной речи в цифровой среде вуза. Вестник Тамбовского университета. Серия Гуманитарные науки, т. 28, № 2, 2023, с. 302–316.

(5). Fang X. English-language creative writing in a Chinese context: translation as a supplement. Journal New Writing, 20(4), 2023, p. 420–438.

(6). Malik M.A., Azam T., Pathan H., Khatoon S. Influence of Mother Tongue on English Writing: An Error-analysis Study about Grade 9 Students in Pakistan. 3L: Language, Linguistics, Literature. 28(2), 2022, p. 83–95.

Choriyev Nurislam Nuritdinovich (Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi;
e-mail: nurislomchoriyev69@gmail.com

BO‘LAJAK “TEXNOLOGIYA” FANI O‘QITUVCHILARIDA KONSTRUKTORLIK FAOLIYATIGA OID KO‘NIKMALARINING SHAKLLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb mavzuga aylangan barcha sohalar, jumladan, ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni qo‘llash tushunchasi, uni joriy etishning ahamiyati va iqtisodiy samarasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, raqamlashtirilgan muhitni ta’lim jarayoniga joriy*